



## 2019 yil yanvar-avgust oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **12457,4** mlrd.so`mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi **105,6%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati **-8,2 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **31,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi– **41,9 %**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarini soni-**7432** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma`lumotlar bo`yicha 2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 12457,4 mlrd.so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo`lib, o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o`shishining asosiy omili bo`lib, tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 130,7 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – 104,5%, elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondititsiyalash – 110,9 % ga va suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 103,0 % ga o`shishi hisoblanadi.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.**



**Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**



Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 30,2 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).


2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11903,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,6 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi -14,6 mlrd.so'mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%), o'rta yuqori texnologiyali – 1757,9 mlrd.so'mni, (14,1 %), o'rta quyi texnologiyali – 3638,3 mlrd.so'mni, (29,2%) va quyi texnologiyali – 6492,7 mlrd.so'mni, (52,2%) tashkil etdi.

#### Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



**Yuqori texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi- 14,6 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%**



**O'rta yuqori texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi - 1757,9 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-14,1 %**



**O'rta quyi texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi - 3638,3 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-29,2 %**



**Quyi texnologiyali tarmog'i ishlab chiqarish hajmi - 6492,7 mlrd.so'm, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-52,2%**



O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 0,8 % ga, terini qayta ishlash 0,7 % ga, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari) ishlab chiqarish 1,4% ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,6 % ga oshganligini, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish esa 0,1 % ga, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 0,3 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 0,2 % ga pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, foizda
95,0	<b>Karbamid, ming azot tonna</b> 	128,7	135,5
1190	<b>Avtotransport oynalari, tonna</b> 	1821,6	153,1

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
528416	Sement klinkerlari, tonna 	573567	108,5
2,0	Natriy nitrat, ming tonna. 	3,1	151,5
92,6	Amoniy nitrat, ming t. azot 	118,0	127,5
11,0	Superfosfat ming P2O5 tonna. 	13,4	113,5
617201	Portlandsement, tonna 	693887	112,4
253,0	Suvsiz ammiak, ming tonna. 	330,8	130,8

### **Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 463,1 mlrd. so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil etdi.



### **Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,7 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.



## 2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3969,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 8,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 36,9 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 15% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,5% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,2% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 10,7 % ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,2% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,9% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3 % ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Bag`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2 % ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,3% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.



## 2019 yil yanvar-avgust oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi, foizda




## 2019 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va viloyatdagi ulushi, %



### Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 689,3 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 836,0 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 209,7 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 313,8 mlrd.so`m, Toshloq tumani 212,3 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 128,6 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 165,6 mlrd.so`m, Quva tumani 149,6 mlrd.so`m, Buvayda tumani 91,8 mlrd.so`m, Beshariq tumani 180,8 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 168,3 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 149,8 mlrd.so`m, Farg`ona tumani 118,3 mlrd.so`m, Rishton tumani 164,9 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 75,2 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 94,6 mlrd.so`m, So`x tumani 37,6 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 139,9 mlrd.so`m, Furqat tumani 43,5 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.

*Shahar va tumanlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va ulushi*




**Farg`ona viloyatining 2019 yil yanvar-avgust oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2019 yil yanvar-avgust chiqarilishi		2019 yil yanvar-avgust aholi jon boshiga	2019 yil yanvar-avgust xalq iste`mol tovarlari		2019 yil yanvar-avgust aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m	mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m
1	Oltiariq t.	271,8	2,2	1310,5	149,8	3,8	722,3
2	Qo`shtepa t.	147,8	1,2	793,0	94,6	2,4	507,6
3	Bog`dod t.	288,7	2,3	1369,9	168,3	4,2	798,6
4	Buvayda t.	257,7	2,1	1154,8	91,8	2,3	411,4
5	Beshariq t.	283,3	2,3	1265,5	180,8	4,6	807,6
6	Quva t.	527,5	4,2	2081,8	149,6	3,8	590,4
7	Uchko`prik t.	150,9	1,2	673,8	139,9	3,5	624,7
8	Rishton t.	250,5	2,0	1264,0	164,9	4,2	832,1
9	So`x t.	78,6	0,6	1029,2	37,6	0,9	492,4
10	Toshloq t.	1327,9	10,7	6707,3	212,3	5,3	1072,3
11	O`zbekiston t.	290,3	2,3	1239,9	165,6	4,2	707,3
12	Farg`ona t.	181,4	1,5	868,2	118,3	3,0	566,2
13	Dang`ara t.	490,3	3,9	2884,2	128,6	3,2	756,5
14	Furqat t.	75,1	0,6	648,2	43,5	1,1	375,5
15	Yozyovon t.	160,0	1,3	1477,8	75,2	1,9	694,6
16	Farg`ona sh.	4599,8	36,9	16139,1	689,3	17,4	2418,5
17	Qo`qon sh.	1870,6	15,0	7493,2	836,0	21,1	3348,8
18	Quvasoy sh.	687,8	5,5	7475,5	209,7	5,3	2279,2
19	Marg`ilon sh.	517,1	4,2	2229,2	313,8	7,9	1352,8
<b>Viloyat bo`yicha</b>		<b>12457,4</b>	<b>100,0</b>	<b>3369,4</b>	<b>3969,6</b>	<b>100,0</b>	<b>1073,7</b>

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hisyasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 41,9% tashkil etmoqda.

### 2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 7432 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1319 tasi Qo`qon shahri, 942 tasi Farg`ona shahri, 883 tasi Marg`ilon shahri, 192 tasi Quvasoy shahri, 537 tasi Uchko`prik tumani, 443 tasi O`zbekiston tumani, 385 tasi Dang`ara tumani, 384 tasi Buvayda tumani, 326 tasi Quva tumani, 285 tasi Toshloq tumani, 268 tasi Oltiariq tumani, 260 tasi Bog`dod tumani, 227 tasi Rishton tumani, 218 tasi Qo`shtepa tumani, 204 tasi Farg`ona tumani, 148 tasi Furqat tumani, 141 tasi Yozyovon tumani, 137 tasi Beshariq tumani, 133 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 1349 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 162 tasi Farg`ona shahri, 140 tasi Qo`qon shahri, 94 tasi Marg`ilon shahri, 44 tasi Quvasoy shahri, 116 tasi Quva tumani, 97 tasi Uchko`prik tumani, 92 tasi Buvayda tumani, 83 tasi O`zbekiston tumani, 73 tasi Oltiariq tumani, 76 tasi Rishton tumani, 65 tasi Dang`ara tumani, 55 tasi Farg`ona tumani, 57 tasi Bog`dod tumani, 51 tasi Toshloq tumani, 35 tasi Qo`shtepa tumani, 33 tasi Beshariq tumani, 31 tasi Furqat tumani, 20 tasi Yozyovon tumani, 25 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

*Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-avgust oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda*



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

I.Ahmedov  
(0371) 230-87-19